



Reg № 05/03

«01» «May» 2024 y.

DIPLOM DUBLIKAT OLISH HAQIDA MA'LUMOTNOMA

Ta'lim tashkilotini tamomlagan, ma'lumotini tasdiqlovchi hujjati (diplom, sertifikat) yo'qolgan yoki yaroqsiz holga kelgan, familiyasi, ismi, otasining ismi o'zgarganda jismoniy shaxslar hujjatning dublikatini berish uchun davlat xizmatlari markazlari yoki [YalDXP](#) orqali murojaat qiladi.

Dublikat asl nusxa bilan bir xil yuridik kuchga ega.

- Ariza beruvchi DXMga kelib murojaat etganda xodim ariza beruvchi nomidan so'rovnomani elektron to'ldiradi.
- Ariza beruvchi so'rovnomani YalDXP orqali to'ldirilganda, undan elektron raqamli imzo talab etilmaydi.
- Davlat xizmati uchun **BHM 1 baravari** miqdorida yig'im undiriladi.

Yig'imni to'lamaslik xizmat ko'rsatishni rad etish uchun asos hisoblanadi.

So'rovnomada noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilsa, ularni bartaraf etish uchun ariza beruvchiga **5 ish kunlik** muddat beriladi.

So'rovnoma tushgandan boshlab **10 ish kunida** hujjat dublikati rasmiylashtiriladi va bu haqida ariza beruvchiga xabar beriladi.

Ariza beruvchi ta'lim to'g'risidagi hujjat dublikatini vakolatli organdan olib ketadi.

Ariza beruvchining xohishiga ko'ra, ta'lim to'g'risidagi hujjat dublikati vakolatli organ tomonidan **pochta xizmati** orqali yuborilishi mumkin. Bunda pochta uchun to'lovlarni ariza beruvchi to'laydi.

Azizbek Umarov

Ofis registratori xizmatlari
bo'limi bosh mutaxassisi